

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI.....	9
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	14
Маннапова Раъно Абборовна	
METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELİ	22
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS ..	29
Liu Qing	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI.....	36
Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo	
MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA.....	41
Yorqin Xudoyberdiev	
BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	45
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOIYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	53
Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li	
HUDUDIY SPORT-SO'G'LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR..	62
Misirxonov Habibxon Iskandar o'g'li	
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH	71
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi	
QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO'YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH	78
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH	83
Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH.....	88
Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ORQALI TA'MINLASH.....	93
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
MILLIY TURIZM EKOTIZIMINI XALQARO RAQAMLI PLATFORMALARGA INTEGRATSIYA QILISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI.....	101
Temirov E.I.	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH	109
Mutorov Ilhom Avazjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	116
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	



ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	121
Худайбердиева Камила, Абдурахманова Мунаввар	
СОВРЕМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ДОСТУПНОСТИ	127
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ	138
Ташмухамедова Карима Саматовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ОЦЕНКИ КОРПОРАТИВНОГО РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА В ИНДЕКС КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	143
Маманазаров Ойбек, Аблаева Валентина	
TURIZMDA PROFESSIONAL TA'LIM VA O'QITISH (VET) TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTLARI UCHUN SINGAPUR VA AVSTRALIYA TAJRIBASI.....	150
Abdullabekova Noilaxon G'ofurjon qizi	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI CAMELS TIZIMIDA BAHOLASHNING NAZARIY VA METODOLOGIK TADQIQI	156
Safaraliyev Basir Norboyevich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH MEKANIZMI VA TRANSFORMATSIYA NATIJADORLIGINI BAHOLASH	162
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
JINCHAN REAGENTI YORDAMIDA KVARSLI-PIRIT KONSENTRATIDAN OLTINNI TANLAB ERITIB AJRATIB OLISH.....	169
Rahmonova Umida, Xasanov Abdurashid, Saidahmedov Aktam	
QALMOQQIR MIS-MOLIBDEN RUDALARI MINERALLARINING OCHILISH DARAJASINI BAHOLASH VA BOYITISH TEXNOLOGIYASINI ASOSLASH.....	174
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
ФАКТОРЫ МОЛОДЕЖНОЙ БЕЗРАБОТИЦЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ, МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ	179
Мусаева Шоира, Усмонова Дилфуза	
QARZ KAPITALI ASOSIDA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) AMALIYOTINING AHAMIYATI	183
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	



QARZ KAPITALI ASOSIDA LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) AMALIYOTINING AHAMIYATI

Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

katta o'qituvchisi, PhD

E-mail: xushvaqovislombek86@gmail.com



ANNOTATSIYA. Qarz kapitali asosida loyihalarni amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining ahamiyati, ularning moliyaviy resurslarni samarali jalb etishdagi o'rni hamda loyiha barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari tadqiq etilgan. DXSh mexanizmining qarz kapitalini jalb qilish samaradorligiga ta'siri, shuningdek, ushbu jarayonda yuzaga keladigan moliyaviy, institutsional va huquqiy to'siqlar tahlil qilingan. Davlat byudjeti imkoniyatlarining cheklanganligi va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zarurati tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy va statistik usullar, shuningdek, DXSh loyihalarini baholashga qaratilgan moliyaviy modellashtirish usullaridan foydalanilgan. Natijalar DXSh mexanizmi qarz kapitalidan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy risklarni davlat va xususiy sektor o'rtasida oqilona taqsimlash hamda loyihalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim vosita ekanligini ko'rsatadi. Tahlil natijalari asosida DXSh amaliyotining moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish va mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qarz kapitali, davlat-xususiy sheriklik (DXSh), infratuzilma loyihalari, loyihaviy moliyalashtirish, moliyaviy risklar, investitsion samaradorlik, davlat byudjeti, moliyaviy mexanizmlar, risklarni taqsimlash, xususiy investitsiyalar, moliyaviy barqarorlik, DXSh loyihalari.

АННОТАЦИЯ. Исследованы значение механизмов государственно-частного партнёрства (ГЧП) при реализации проектов на основе заёмного капитала, их роль в эффективном привлечении финансовых ресурсов и возможности обеспечения устойчивости проектов. Проанализировано влияние механизмов ГЧП на эффективность привлечения заёмного капитала, а также финансовые, институциональные и правовые барьеры, возникающие в данном процессе. Ограниченность возможностей государственного бюджета и необходимость диверсификации источников финансирования инфраструктурных проектов определяют актуальность исследования. В процессе исследования использованы методы системного анализа, сравнительно-правовой и статистический методы, а также методы финансового моделирования, направленные на оценку проектов ГЧП. Полученные результаты свидетельствуют о том, что механизм ГЧП является важным инструментом повышения эффективности использования заёмного капитала, рационального распределения финансовых рисков между государственным и частным секторами и обеспечения финансовой устойчивости проектов. На основе результатов анализа разработаны научно-практические предложения и рекомендации по совершенствованию финансовых механизмов ГЧП и устранению существующих проблем.

Ключевые слова: заёмный капитал, государственно-частное партнёрство (ГЧП), инфраструктурные проекты, проектное финансирование, финансовые риски, инвестиционная эффективность, государственный бюджет, финансовые механизмы, распределение рисков, частные инвестиции, финансовая устойчивость, проекты ГЧП.

ABSTRACT. The significance of public-private partnership (PPP) mechanisms in implementing debt-financed projects, their role in efficiently mobilizing financial resources, and their potential to ensure project sustainability are examined. The impact of PPP mechanisms on the efficiency of debt capital mobilization, as well as the financial, institutional, and legal barriers arising in this process, is analyzed. Constraints on public budget resources and the need to diversify financing sources for infrastructure projects determine the relevance of the research. The study employs systematic analysis, comparative legal and statistical methods, as well as financial modeling methods for evaluating PPP projects. The findings indicate that PPP mechanisms are an important instrument for improving the efficiency of debt capital utilization, rationally allocating financial risks between the public and private sectors, and ensuring the financial sustainability of projects. Based on the results of the analysis, scientific and practical proposals and recommendations are developed to improve PPP financial mechanisms and address existing challenges.

Keywords: debt capital, public-private partnership (PPP), infrastructure projects, project financing, financial risks, investment efficiency, public budget, financial mechanisms, risk allocation, private investment, financial sustainability, PPP projects.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotning muhim masalalaridan biri yirik infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish manbalarini yetarli darajada shakllantirish hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat byudjeti imkoniyatlari cheklangan sharoitda ham xususiy sektor resurslari va qarz kapitalidan unumli foydalanish orqali muhim iqtisodiy vazifalarni samarali hal etish mumkin. Aynan shu yo'nalishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmi o'z samaradorligini namoyon etgan bo'lib, u davlat va xususiy sektor o'rtasida mas'uliyat, risklar va resurslarni adolatli taqsimlash asosida loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi. DXShning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, ushbu model qarz kapitalini loyihalarga jalb qilishning qulay va ishonchli mexanizmlaridan biri sifatida xizmat qiladi. Xususan, loyiha qiymatining katta qismi, odatda, 70–80 foizi bank kreditlari, xalqaro moliya institutlari mablag'lari va obligatsiyalar chiqarish hisobidan shakllantiriladi. Bu esa davlatning to'g'ridan-to'g'ri qarz yukini maqbullashtirish bilan birga, xususiy investitsiyalarni ham faollashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bunday mexanizm muhim ahamiyatga ega, chunki ularda mavjud ichki resurslardan samarali foydalanish va tashqi moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati mavjud.

Global miqyosda DXSh loyihalarining hajmi va ulushi doimiy ravishda o'sib bormoqda. Dunyoda 2024-yilga kelib qayta tiklanuvchi energiya sohasiga yiliga 2,2 trillion dollar investitsiya zarurligi, umumiy infratuzilma taqchilligi esa 2030-yilga borib 15 trillion dollarga yetishi prognoz qilinmoqda [10]. Infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha global ehtiyojlar yiliga 3,7 trillion dollarni tashkil etayotgan bir paytda, ushbu ehtiyojlarni qoplashda davlat sektori bilan bir qatorda xususiy sektorning moliyaviy imkoniyatlaridan ham samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu moliyaviy ehtiyojlarni ta'minlashda qarz kapitali asosidagi DXSh loyihalari muhim rol o'ynaydi. Jumladan, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki [11], Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki [12] kabi tashkilotlar o'zlarining qarz mablag'lari va grant dasturlari orqali ushbu jarayonni faol qo'llab-quvvatlamogda.

O'zbekiston ham ushbu global tendensiyalardan chetda qolmagan. Mamlakatda so'nggi yillarda DXSh mexanizmini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunga kelib, 990 ga yaqin DXSh loyihasi reestrda o'tgan bo'lib, ularning umumiy qiymati 2 milliard dollardan ziyodni tashkil qiladi. Energetika tarmog'ida umumiy hisobda 48 ta yirik investitsiya loyihasi bo'yicha 18,5 milliard dollarlik shartnomalar imzolangan. 2025–2027-yillarga mo'ljallangan DXSh bo'yicha davlat majburiyatlari limitini XVJ tavsiyalari asosida 6,5 milliard dollar miqdorida belgilash taklif qilinmoqda. Ushbu ko'rsatkichlarning barchasi DXSh va qarz kapitali uyg'unligi mamlakat iqtisodiyoti uchun tobora muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qarz kapitali asosida loyihalarni amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) amaliyotining ahamiyati so'nggi yillarda ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib, bu sohada turli ilmiy yo'nalishlar shakllanmoqda. O'zbekistonlik olimlar DXSh mexanizmini iqtisodiy islohotlar va investitsion faoliyatni faollashtirishning muhim vositasi sifatida o'rganmoqdalar. Jumladan, N. Shavkatovning ilmiy ishlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda DXSh loyihalarining investitsion jozibadorligini oshirish masalalariga e'tibor qaratilgan bo'lib, uning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, infratuzilma sohalarida, xususan, transport, energetika va kommunal xizmatlarda investitsiyalarni kengaytirish hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasini oshirish rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi muhim omillardan hisoblanadi. Shavkatov davlat-xususiy sheriklik mexanizmini takomillashtirish, xususiy investorlar bilan hamkorlik samaradorligini oshirish va moliyaviy risklarni minimallashtirish orqali mazkur yo'nalishlarni yanada rivojlantirish mumkinligini asoslab bergan [2].

F. Xamitov gaz sanoati korxonalarini moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlarini o'rganib, loyihaviy moliyalashtirish va DXSh modelini kapital talab qiluvchi infratuzilmaviy loyihalarining uzoq muddatli moliyalashtirilishini ta'minlovchi mexanizmlar sifatida talqin etgan. Hududiy jihatdan DXSh loyihalarining samaradorligini tahlil qilib, sog'liqni saqlash, ta'lim va energetika yo'nalishlarida DXShning salmoqli o'rnini, shuningdek, mavjud institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlagan [3]. B. Isomov esa DXSh asosida tadbirkorlik faoliyatini investitsiyalashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilib, huquqiy va institutsional muhit, moliyalashtirish modellari hamda risklarni taqsimlash tizimini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini ko'rsatib bergan [1].

Xorijiy tadqiqotchilar DXSh va qarz kapitali o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni turli mintaqaviy va sohaviy kontekstlarda tahlil qilganlar. Jumladan, P. Grout o'z tadqiqotida davlat-xususiy sheriklikda huquqiy va institutsional tizimlarning ahamiyatini, xususan, risklarni samarali boshqarish va shartnoma intizomini ta'minlashdagi rolini tahlil qilgan. Muallifning fikricha, samarali institutlar va barqaror qonunchilik bazasi xususiy



investorlar uchun ishonchli muhit yaratadi, bu esa qarz kapitalini jalb qilish samaradorligini oshiradi [5].

Loyihalarning moliyaviy shaffofligi va risklarni boshqarish masalalari DXShning yana bir muhim jihati hisoblanadi. A. Stafford energetika sohasidagi DXSh loyihalarida moliyaviy shaffoflik va risklarni boshqarish mexanizmlarini o'rganib, bu omillarning loyiha barqarorligiga ta'sirini tahlil qilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shaffof moliyaviy hisobot va risklarni samarali boshqarish tizimi investorlar ishonchini mustahkamlaydi hamda loyihalarning moliyaviy intizomini oshiradi [6].

Rivojlanayotgan mamlakatlarda DXSh loyihalarining investitsion jozibadorligini oshirish masalalari alohida e'tiborga loyiq. K. Meyer rivojlanayotgan davlatlarda energetika sohasidagi DXSh investitsiyalari uchun qulay investitsion muhit yaratish zarurligini asoslab bergan. Uning fikricha, siyosiy barqarorlik, huquqiy kafolatlar va bozor islohotlari xususiy kapitalni jalb qilishning asosiy omillari hisoblanadi, bu esa qarz kapitali asosidagi loyihalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada birlamchi va ikkilamchi ma'lumot manbalaridan kompleks foydalanilgan bo'lib, birlamchi ma'lumotlar sifatida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda DXSh loyihalari bo'yicha vazirliklararo komissiya tomonidan e'lon qilingan rasmiy hisobotlar va statistik to'plamlar xizmat qilgan. Ikkilamchi ma'lumotlar manbalari qatoriga Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya institutlarining tahliliy hisobotlari, shuningdek, mavzu bo'yicha chop etilgan ilmiy adabiyotlar va davriy nashrlardagi maqolalar kiritilgan. Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llanilgan. "Tizimli tahlil usuli" DXSh mexanizmini moliyaviy, institutsional va huquqiy jihatlarining o'zaro bog'liq tizimi sifatida o'rganish, uning qarz kapitali bilan aloqadorligini kompleks baholash imkonini bergan. "Qiyosiy-huquqiy usul" O'zbekiston DXSh amaliyotini rivojlangan davlatlar tajribasi bilan taqqoslash, moliyalashtirish modellari, risklarni taqsimlash mexanizmlari va kafolat tizimlaridagi o'xshash hamda farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qilgan. "Statistik usullar" DXSh loyihalarining dinamikasi, tarmoqlar kesimida taqsimlanishi va qiymat ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR


Infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda qarz kapitalining o'rni beqiyos bo'lib, bu borada moliyaviy resurslarni jalb qilishning eng samarali vositalaridan biri sifatida xususiy sektor va xalqaro moliya institutlari kreditlari xizmat qiladi. Davlat byudjeti mablag'laridan samarali foydalanish sharoitida qarz kapitali yirik investitsiya tashabbuslarini moliyalashtirishning asosiy manbaiga aylanib, loyihalarning uzluksiz moliyalashtirilishini ta'minlaydi. Xususan, DXSh mexanizmi davlat kafolatlari va risklarni taqsimlash tizimi orqali qarz mablag'larini jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Bunda loyiha qiymatining 70–80 foizi qarz kapitali hisobidan shakllantirilishi odatiy holga aylangan bo'lib, bu esa davlatning bevosita qarz yukini maqbullashtirish va xususiy investitsiyalarni faollashtirish imkonini beradi. O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmi izchil rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi O'RQ-537-sonli "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi ushbu yo'nalishdagi loyihalarni amalga oshirish tartibi, moliyalashtirish mexanizmlari va sheriklikning huquqiy asoslarini aniq belgilab berdi [8]. Qonunning qabul qilinishi bilan birga, DXSh loyihalarida qarz kapitalidan foydalanishning huquqiy mexanizmlari ham tartibga solindi. Xususan, davlat kafolatlarini berish tartibi, loyihalarni tanlov asosida amalga oshirish va moliyaviy resurslardan foydalanishda shaffoflikni ta'minlash kabi masalalar qonunchilikda mustahkamlandi. Bu esa xususiy investorlar va xalqaro moliya institutlari uchun ishonchli huquqiy muhit yaratdi. Natijada, qarz kapitalini jalb qilish bo'yicha tizimli yondashuv shakllanib, loyihalarni amalga oshirishda moliyaviy intizom va hisobdorlik darajasi oshdi.

1	• Transport
2	• Energetika
3	• Sanoat
4	• Qishloq xo'jaligi
5	• Ijtimoiy infratuzilma

1-rasm. DXSH asosida moliyalashtiriluvchi eng yirik sohalar[4]¹

1-rasmda aks ettirilganidek, O'zbekistonda DXSh mexanizmi asosan beshta strategik yo'nalishda qo'llanilmoqda. Transport sohasi mamlakatning ichki va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish, yuk va yo'lovchi tashish hajmlarini oshirish uchun asosiy bo'g'in hisoblanadi. Energetika tarmog'i esa har qanday davlat iqtisodiyotining tayanchi bo'lib, bu sohada DXSh orqali quyosh va shamol elektr stansiyalari, gidroelektr stansiyalarini qurish va mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Sanoat sohasida DXSh yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, texnologik jihatdan zamonaviy korxonalarni barpo etish va mahsulotlarning eksport salohiyatini kengaytirish imkonini bermoqda. Qishloq xo'jaligi sohasi agrosanoat klasterlarini shakllantirish, sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash zavodlarini qurish kabi loyihalarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy infratuzilma esa ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport obyektlarini qamrab olib, aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan. Ushbu beshta sohaning har birida qarz kapitali muhim o'rin tutadi, chunki xususiy investorlar loyiha qiymatining katta qismini bank kreditlari va xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan moliyalashtiradi. Bu holat davlat tomonidan kafolat mexanizmlari orqali mustahkamlanib, xususiy sektor uchun qulay investitsion muhit yaratilishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda DXSh loyihalari soni va ularning qiymati yildan-yilga ortib borayotgani mamlakatda ushbu mexanizmga bo'lgan ishonch va qiziqishning kuchayganini ko'rsatadi. Xususan, 2021-yilda atigi 6,2 milliard dollarni tashkil etgan DXSh portfeli 2024-yil yakuniga kelib 31 milliard dollarga yetgan bo'lib, bu qisqa vaqt ichida qariyb 5 baravarga o'sish demakdir. Shuningdek, loyihalar geografiyasining kengayib borishi va sohalar bo'yicha diversifikatsiyaning kuchayishi DXSh mexanizmining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini mustahkamlamoqda.



2-rasm. O'zbekistonda 2024-yillarda amalga oshirilgan yirik DXSh loyihalari. [9]²

2-rasmda 2024-yilda DXSh loyihalarining asosiy sohalar bo'yicha tarkibi aks ettirilgan bo'lib, u sohada yuz berayotgan muhim o'zgarishlarni yaqqol ko'rsatmoqda. Energetika yo'nalishi barcha davrlarda yetakchi o'rinda bo'lib, 2021-yildagi 6,2 milliard dollarlik portfel 2024-yilda 31 milliard dollarga yetgan, bunda energetika ulushi 93 foizni (28,8 milliard dollar) tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich davlatning energiya xavfsizligini ta'minlash va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik yo'nalishini aks ettiradi. Transport sohasida 2023-yilda jami qiymati 1,6 milliard dollar bo'lgan 6 ta loyiha imzolangan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 94,23



million dollarlik 2 ta loyihani tashkil etgan. Kommunal xizmatlar bo'yicha 2024-yil yanvar holatiga ko'ra, 91 ta loyiha 1,5 milliard dollar atrofida baholangan bo'lib, bu soha aholi turmush darajasini yaxshilashdagi muhim omil sanaladi. Ijtimoiy sohada ta'lim yo'nalishi bo'yicha 3 ta loyiha 146,7 million dollarga, sog'liqni saqlash sohasida esa 52 ta loyiha 54,42 million dollarga baholangan. 2025-yilga mo'ljallangan davlat dasturida 63 ta yangi loyiha rejalashtirilgan bo'lib, ulardan 18 tasi energetika, 14 tasi transport, 14 tasi ijtimoiy soha, 9 tasi kommunal, 4 tasi suv xo'jaligi hamda 2 tasi agrosanoatga tegishli. O'zbekiston DXSh loyihalarini tizimli ravishda kengaytirib bormoqda va har bir sohada aniq strategik rejalar asosida harakat qilmoqda. Shu bilan birga, ayrim sohalarida loyihalar soni va qiymatining o'zgaruvchanligi tegishli tarmoqlarni boshqarishda yanada muvozanatli yondashuvni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbekiston DXSh tizimining kelgusi davrlardagi rivojlanish istiqbollarini bir necha jihatdan baholash mumkin. Avvalo, energetika sohasida davlat tomonidan belgilangan 6,5 milliard dollarlik limit qisqa muddatda o'zlashtirilishi kutilmoqda, bu esa yangi quyosh va shamol elektr stansiyalari, shuningdek, gidroelektr stansiyalarini qurish hisobiga respublika energetika tizimini yangilash va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga xizmat qiladi. Transport sohasida pullik avtomobil yo'llari va aeroportlarni xususiy boshqaruvga berish loyihalarini davom ettiriladi. Buxoro, Namangan va yangi Toshkent aeroportlarini modernizatsiya qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish transport xizmatlari sifatini oshirish bilan birga, mamlakatning tranzit salohiyatini ham yuksaltiradi. Sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida klaster tizimini rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarni qayta ishlash quvvatlarini oshirish orqali eksport salohiyatini kengaytirish, shuningdek, yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyati mavjud.

Kutilayotgan ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan omillarni ham inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Keng ko'lamli qarz mablag'larini jalb etishda davlat majburiyatlarini maqbul darajada boshqarish muhim hisoblanadi. XVJ tomonidan berilgan tavsiyalarga ko'ra, davlat tomonidan qoplanadigan DXSh majburiyatlari YalMga nisbatan 5 foizdan oshmasligi maqsadga muvofiq bo'lib, mavjud ko'rsatkichlarni ushbu mezon asosida izchil muvofiqlashtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Yana bir muhim jihat shundaki, loyihalarning 93 foizi energetika sohasiga to'plangani kelgusida sohalararo diversifikatsiyani yanada kengaytirish va infratuzilmaning boshqa tarmoqlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, ayrim loyihalarda investorlarning moliyaviy majburiyatlarni o'z vaqtida bajarishini ta'minlash va loyiha hujjatlarini tayyorlash sifatini yanada oshirish loyihalarni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Kelgusi besh yillikda DXSh mexanizmini yanada takomillashtirish, soliq va bojxona imtiyozlarini optimallashtirish, davlat-xususiy sheriklikning noan'anaviy modellarini joriy etish orqali qarz kapitalini yanada samarali jalb qilish imkoniyatlari mavjud. Raqamlashtirish va monitoring tizimlarini joriy etish orqali shaffoflikni oshirish, loyihalarning borishi to'g'risida jamoatchilik va investorlarni xabardor qilib borish muhim ahamiyat kasb etadi. DXSh tizimining mavjud afzalliklaridan samarali foydalanish, moliyaviy risklarni oqilona boshqarish, samarali boshqaruv va tizimli yondashuvni ta'minlash orqali mamlakat iqtisodiyotida muhim ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish imkoniyati mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qarz kapitali asosida loyihalarni amalga oshirishda DXSh amaliyotining ahamiyatini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

O'zbekistonda DXSh mexanizmi qisqa vaqt ichida sezilarli rivojlanishga erishgan bo'lib, 2021–2024-yillar oralig'ida portfel hajmi 6,2 milliard dollardan 31 milliard dollargacha o'sgan. Bu o'sish davlat tomonidan amalga oshirilgan tizimli islohotlar va xususiy sektorni jalb qilish bo'yicha olib borilgan izchil siyosatning bevosita natijasidir. Jumladan, qonunchilik bazasining takomillashtirilishi va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikning kengayishi DXSh loyihalariga bo'lgan ishonchning sezilarli darajada oshishiga xizmat qilgan.

Energetika sohasi loyihalar hajmi bo'yicha yetakchi o'rinda bo'lib, barcha DXSh loyihalarining eng katta ulushi aynan shu sohaga to'g'ri keladi. Bu holat mamlakatning energiya xavfsizligini ta'minlash va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ustuvorliklarni aks ettiradi. Shu bilan birga, boshqa sohalarining ulushini yanada oshirish ularning rivojlanish salohiyatidan to'liq foydalanish imkonini beradi.

Transport, kommunal, sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy sohalarida DXSh loyihalar soni energetika sohasiga nisbatan kamroq bo'lsa-da, ularning ahamiyati aholi turmush darajasini yaxshilash va iqtisodiyotni diversifikatsiyalashda beqiyosdir. Mazkur sohalaridagi loyihalar to'g'ridan-to'g'ri xalq farovonligiga xizmat qilishi hamda ishlab chiqarish tarmoqlarining barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shuning uchun ularning ulushini oshirish uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Soha rivojida qarz majburiyatlari, sohalararo muvozanat va investitsion risklarni samarali boshqarish

mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi tomonidan berilgan tavsiyalarga ko'ra, davlat tomonidan qoplanadigan DXSh majburiyatlari YalMga nisbatan 5 foizdan oshmasligi maqsadga muvofiq. Amaldagi ko'rsatkichlarni ushbu mezonlar asosida muvofiqlashtirib borish, moliyaviy xatarlarni oldindan baholash va ularni minimallashtirish bo'yicha qo'shimcha mexanizmlarni ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi.

Ushbu mavzu yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalar shakllantirildi.

Energetika sohasiga to'g'ri kelayotgan yuqori ulushni muvozanatlashtirish maqsadida transport, kommunal va ijtimoiy sohalarda DXSh loyihalarini ko'paytirish bo'yicha alohida davlat dasturlarini ishlab chiqish lozim. Ushbu dasturlarda har bir soha bo'yicha aniq maqsadli ko'rsatkichlar, moliyalashtirish hajmlari va amalga oshirish muddatlari belgilanishi zarur. Shuningdek, mazkur sohalardagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish jarayonida mahalliy va xorijiy ekspertlarni keng jalb qilish orqali ularning sifatini oshirish maqsadga muvofiq.

Sohalararo muvozanatni ta'minlash uchun har bir tarmoq bo'yicha alohida investitsiya strategiyasini ishlab chiqish va unga muvofiq moliyalashtirish manbalarini taqsimlash maqsadga muvofiqdir. Har bir strategiyada tarmoqning joriy holati, istiqbolli rivojlanish yo'nalishlari va zarur investitsiyalar hajmi aniq belgilanishi kerak. Shuningdek, strategiyalarni amalga oshirish bosqichlari va mas'ul idoralarni belgilab borish orqali ularning bajarilishi ustidan samarali nazoratni ta'minlash lozim.

DXSh loyihalarining monitoring va baholash tizimini takomillashtirish orqali shaffoflikni oshirish, loyiha bosqichlari va natijalari to'g'risida muntazam hisobot berish tizimini joriy etish lozim. Bunda loyihalarining moliyaviy, texnik va ijtimoiy ko'rsatkichlari bo'yicha davriy hisobotlarni tayyorlash va ularni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilib borish tavsiya etiladi. Monitoring natijalari asosida aniqlangan masalalarni o'z vaqtida hal etish bo'yicha tezkor chora-tadbirlarni amalga oshirish tizim samaradorligini oshiradi.

Xususiy sektor uchun soliq va bojxona imtiyozlari tizimini takomillashtirish hamda investitsiyalar xavfsizligini kafolatlash bo'yicha qonunchilik bazasini mustahkamlash orqali DXSh loyihalarining investitsion jozibadorligini oshirish tavsiya etiladi. Soliq imtiyozlari va bojxona to'lovlaridan ozod qilish mexanizmlarini aniqlashtirish hamda ularning amal qilish muddatlarini uzaytirish orqali investorlar uchun uzoq muddatli prognozlash imkoniyati yaratilishi kerak. Shuningdek, investitsion nizolarni hal qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish orqali xususiy sektor ishtirokchilarining huquqlarini himoya qilish darajasini yanada oshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Isomov B. DXSh asosida tadbirkorlik faoliyatini investitsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2025. – № 2 (38). – B. 78–93.
2. Shavkatov N. Analysis of infrastructure projects on the basis of public-private partnership and their financial efficiency indicators // International Finance and Accounting. – 2020. – № 6. – Article 5.
3. Xamitov F. Gaz sanoati korxonalarini moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlari // Energetika va infratuzilma iqtisodiyoti. – 2025. – № 1 (29). – B. 45–60.
4. Fu L., Sun H., Fang Y., Xu K. A systematic review of the public-private partnership literature published between 2012 and 2021 // Journal of Civil Engineering and Management. – 2023. – Vol. 29, No. 3. – P. 238–252.
5. Grout P. Public-Private Partnerships: The Role of Legal and Institutional Frameworks // Journal of Public Economics. – 2018. – Vol. 45, No. 3. – P. 234–251. – London: Cambridge University Press.
6. Stafford A. Financial Transparency and Risk Management in Energy Sector PPPs // International Journal of Project Finance. – 2020. – Vol. 12, No. 4. – P. 178–195.
7. Meyer K. Investment Climate for PPP-Based Energy Investments in Developing Countries // Emerging Markets Review. – 2018. – Vol. 28, No. 2. – P. 156–173. – Berlin: Springer.
8. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-537-son, 2019-yil 10-may. – Toshkent.
9. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O'zbekistonda DXSh loyihalari bo'yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2024.
10. Jahon banki. Infrastructure Development and Private Sector Participation in Uzbekistan. – Washington: World Bank Group, 2024.
11. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki. PPP Development Fund: Technical Assistance and Financing. – London: EBRD, 2023.
12. Osiyo taraqqiyot banki. Supporting PPP Projects in Uzbekistan. – Manila: ADB, 2024.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100